



LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARINING BADIY TALQINI

Qo‘snnazarova Barchinoy

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining mahoratli yozuvchisi Luqmon Bo‘rixonning “Tun yog‘dusidagi shu’la”, “Kutilgan kun”, “Sinov muddati” kabi hikoyalarining qisqacha mazmuni va undagi qahramonlarning tasnifi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: epitsentr, obraz, g‘oya, realizika.

O‘zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Luqmon Bo‘rixon bo‘lib, o‘lmashasarlari bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan. O‘zbek adabiyotining nozik jihatlarini shamdek yoritgan, qalb va ruh dunyosining qirralarini ifodalagan ijodkor. U yaratgan har bir asar insonni inson ekanligini va voqealarni jonli tarzda kitobxonga yetkaza olganligi bilan ajralib turadi.

“ Haqiqiy dengizchi ummonda o‘zini qanchalik erkin his qilsa, haqiqiy yozuvchi ham so‘zlar ummonida shunchalik erkin suzishi kerak. To‘rt jumla yozib turib u yog‘iga so‘z topolmay qoladigan odamdan yozuvchi chiqmaydi”¹. Darhaqiqat yozuvchining so‘z xazinasi qanchalik boy bo‘lsa , asar ham shunchalik mukammal va teran bo‘ladi. Buning isboti sifatida Luqmon Bo‘rixonning ijod namunalarini ham eslab o‘tmoq joiz. ” Tun yog‘dusidagi shu’la ” hikoyasida yozuvchi noodatiy usulda hikoyani bayon etadi. Ya’ni hikoya ichida hikoya keltirilib, kitobxonga nisbatan yanada tasir kuchini oshirgan. Asarda zabit personaji vatanni asrash, zarur bo‘lsa jonni va molni ham vatan uchun fido qilish g‘oyalarini o‘zi mujassamlagan. Hikoya sodda ammo chuqur ma’no bilan



tasvirlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning syujetida ikki askar va zabit shu'la tomon ketayotganlarida zabitning ko‘nglidan nimalar o‘tmadi, deysiz. Asarda shu'la oddiy nur emas, balki chuqur g‘oyaviy va falsafasiy ma’nolarni o‘ziga yuklaydi. Muallif shu' lani voqealar epitsentrida qo‘ygan chunki chuqur ma’noda uni ramziy jihatda ko‘ra oldi . Insoniyat tug‘ilishi bilanoq bilishga intiladi. Luqmon Bo‘rixon ham shu' la obyekti orqali insonning ilmiy izlanishlariga bo‘lgan qiziqishini ramziy ifodalagan.

- " Shu, shu qayerda miltillab turgan shu'lani ko‘rsam , beixtiyor tikilib qolaman. Olis, ovloq joyida qay bir fidoyi inson timirsklanib yuribdi ekan degan xayolga boraman. Beixtiyor uni borib ko‘rgim kelaveradi ".² Asarda zabitning bunday so‘zlari yuqoridagi fikrni dalillaydi. Zabit obrazi balki boshqa obrazlar ham asarda o‘zining o‘rniga ega bo‘lib, insoniyatni intilishiga , komil inson darajasiga yetkazish vazifasini yuklagan . Inson komillikka yetishi uchun nafs bilan tinimsiz kurash olib boradi . Luqmon Bo‘rixon bu masalani ko‘zdan qochirmagan holda "Kutilgan kun" hikoyasida bosh personaj Bo‘rixon va nafs o‘rtasida jangni yaqqol yoritib bergen .

" Bo‘lub nafsingg‘a tobi, band etarsen tushsa dushmanni,

Sanga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band."³

Asarda ichkilikka mukkasidan ketgan hayotiy qadriyatlarni boy bergen, " Baribir meni tashlab ketadi"⁴ degan fikrlarni Bo‘rixon ayoliga nisbatan o‘ylar lek ichishdan o‘zini tiyish hayoliga kelmas va yana nafsiга qul bo‘laverardi. Uning ayoli Bo‘rixondan voz kechmasdi chunki u o‘zbek xalqining iffatini , sabr- toqatini o‘zida mujassamlantirgan obraz sifatida namoyon bo‘lgan . Muallif bu ikki juftlik orqali inson o‘zini boshqarish qanchalik muhim ekanligini, nafsga berilmaslik uchun iroda zarurligini va nafsi ni tiya olmagan odam insoniyligini yo‘qotishini, oxir oqibat mag‘lubiyatga uchrashini yozuvchi aniq ravshan ko‘rsatgan. Hayotda turli fe'l- atvorli inson borligini "Sinov muddati" hikoyasida o‘z aksini topgan.



Ushbu hikoyada asosiy obrazlar Jasur va Sobir yaqin do'st sifatida namoyon bo'jadi chunki yozuvchi kitobxonning solishtirishi orqali tez xulosa chiqarishini ko'zda tutiladi. Jasur shaxsiyati dadilsiz, maqtanchoqroq kabi hislatda oshkor etiladi. Bunday insonlar boshqalar oldida o'zini kuchli ko'rsatishiga urinadi ammo murakkab vaziyatlarda tezda ortga chekinadi. Bu personajda ham bu vaziyatni ko'zishimiz mumkin. Unga mutlaqo teskari bo'lgan obraz Sobir esa qiyin ahvolda hatto jonini ayamasdan ham yordamga oshiqadigan shaxsiyatini gavdalantirgan. Bu esa insoniylik tuyg'ulari abadiy ekanligiga ishora qilib, kitobxonlarni yozuvchiga nisbatan qiziqishi ortishini kuchaytiradi. Shuningdek hikoyada befarq bo'lmaslik, qiyin hodisalarga uchragan insonlarga yordam berish kerak ekanligiga da' vat qilmoqda. Luqmon Bo'rixonning asarlari insonning yaxshi fazilatlarini uyg'otish, samimiyligi, mehr-muhabbat kabi histuyg'ularni uyg'otadi. Uning qahramonlari oddiy odamlar bo'lgan va shu sababli realistik syujetlarni namoyon qila olgan. Luqmon Bo'rixonning asarlarini o'qir ekanmiz asardagi har bir detallargacha e'tibor qaratganligini e'tirof etamiz.

"Mening fikrimcha bu narsa adabiyotning azaliy talabi yozuvchi nima uchun yozuvchi aynan o'sha detallarni nazardan qochirmasligi kerak. O'sha detallarni tasvirlashda o'quvchi nazarida ham uncha ahamiyatsiz bo'lib tuyilgan eng mayda fuqfiya narsalarga ham yuk yuklash mana shu yozuvchining iqtidorini ko'rsatadi. Yozuvchi aynan o'sha narsalar orqali asarlarni vujudga keltiradi."⁵ Yozuvchining bunday fikrlari juda teran va bu sohada ijod etayotganlar uchun ilhom manbai bo'la oladi. Luqmon Bo'rixon adabiyoti olamida o'chmas iz qoldirdi. Uning ruhi hamisha asarlarida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'tkir Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar". –T.: "Sharq nashriyoti", 2015



2. Luqmon Bo‘rixon “Tun yog’dusidagi shu’la” –T.: “Yangi nashr”, 2016
3. Jo‘rayeva Muhabbat “Alisher Navoiy ijodida nafs tarbiyasi” –T.: “Fan va texnologiya”, 2019
4. Luqmon Bo‘rixon “Kutilgan kun”.-T.:”Yangi nashr”, 2016